

“ZAMONAVIY TA’LIM TASHKILOTLARI: TARBIYACHI PEDAGOG NIGOHIDA”

Abdumajidova Dilnoza Abdumajidovna

*Navoiy Innovatsiyalar Uneversiteti “Maktabgacha ta’lim” yo’nalishi 4-bosqich
talabasi G’ijduvon tuman32-DMTT pedagog tarbiyachisi
dilnozaabdumajidovna06@gmail.com Tel:(+99877) 235-28-09*

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy ta’lim tashkilotlarining bolalar shaxsini shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Tarbiyachi pedagog nuqtayi nazaridan zamonaviy metodlar, raqamli vositalar, shaxsga yo’naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati yoritiladi. Maqolada shuningdek, O’zbekiston va xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimlarining zamonaviylik yo’nalishida olib borayotgan ishlari solishtiriladi va amaliy tavsiyalar beriladi.*

Kalit so’zlar: *zamonaviy ta’lim, raqamli vositalar, bolalar psixologiyasi, metodika, kompetensiyalar, pedagogik innovatsiya, o’yinli o’qitish.*

Аннотация: *В статье анализируется роль современных образовательных организаций в формировании личности детей. С точки зрения педагога, подчеркивается важность современных методов, цифровых инструментов и личностно-ориентированных подходов. Также в статье сравнивается деятельность образовательных систем Узбекистана и зарубежных стран в направлении современности и даются практические рекомендации*

Ключевые слова: *современное образование, цифровые инструменты, детская психология, методология, компетенции, педагогические инновации, игровое обучение.*

Maqolaning dolzarbligi: shaxsiylashtirilgan yondashuv, innovatsion metodlar va pedagogik refleksiya asosida zamonaviy ta’limning ustuvor jihatlarini tahlil qiladita’lim jarayonining barcha ishtirokchilari – o’quvchi, ota-ona, pedagog va jamiyat o’rtasidagi hamkorlik aloqalarini yoritadi.

Kirish.

Zamonaviy ta’lim – bu faqat dars o’tish emas, bu bolaning qalbiga yo’l topish, unga mehr berib, hayotga tayyorlashdir. Tarbiyachi pedagog sifatida har kuni shunga amin bo’laman: zamonaviy muassasada ishlash – bu nafaqat kasb, balki mas’uliyatli hayot tarzi. Bugungi bog’cha, maktab yoki o’quv markazi — bu o’qituvchi markazli emas, balki o’quvchi markazli tizim. Har bir bola individual yondashuvni, o’ziga xos metodikani talab qiladi. Ushbu maqola orqali zamonaviy ta’lim tashkilotlarining afzalliklari, mavjud muammolari va istiqbollari haqida so’z yuritamiz.

Adabiyotlar tahlili

So’nggi yillarda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar maktabgacha ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan.

Prezidentimizning “Ta’lim sifatini oshirishga oid” qarorlarida ham maktabgacha ta’limni modernizatsiya qilish, innovatsion metodlarni joriy etish dolzarb masala sifatida qayd etilgan.

Xorijiy adabiyotlarda zamonaviy maktabgacha ta’limda bolaning shaxs sifatida rivojlanishi, kreativ fikrlashi va ijtimoiy ko’nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa sifatida ko’riladi (UNESCO, 2023).

Tadqiqotchilar fikricha, bolani faqat bilim bilan emas, balki mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish ko’nikmalari bilan qurollantirish kerak (Montessori, 2018). O’zbek olimlari ham maktabgacha ta’limga katta e’tibor qaratib kelmoqda.

Masalan, M. Zokirova (2022) pedagogik mahoratning bolalar tarbiyasidagi ahamiyatini tahlil qilsa, R. Safarova (2019) maktabgacha ta’limda innovatsion yondashuvlar haqida fikr bildirgan. Ularning tadqiqotlarida bolalar bilan ishlashda interfaol metodlar, STEAM texnologiyalari, o’yin faoliyati va ijodiy topshiriqlar asosiy o’rin tutishi ta’kidlangan.

Shuningdek, amaliy kuzatuvlar shuni ko’rsatadiki, zamonaviy MTTlarda pedagoglar bolalarning individual qiziqishlarini inobatga olib, ularni mustaqil izlanishga yo’naltirsa, natijalar samaraliroq bo’ladi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, zamonaviy maktabgacha ta’lim pedagog nigohida – bu bolaning shaxsiy rivojlanishi, emotsional intellekti va ijtimoiy ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tarbiya va ta’lim tizimidir.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda zamonaviy maktabgacha ta’limning afzalliklari va pedagoglarning qarashlarini o’rganish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Adabiyotlarni o’rganish – maktabgacha ta’lim bo’yicha Prezident qarorlari, xalqaro tajribalar va olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi.

2. Kuzatish – MTT mashg’ulotlarida bolalarning faoliyati, pedagoglarning yondashuvi kuzatildi.

3. Suhbat va so’rov – tarbiyachilar va ota-onalar bilan suhbat o’tkazilib, ularning fikrlari yig’ildi.

4. Taqqoslash – an’anaviy va zamonaviy ta’lim yondashuvlari solishtirildi.

5. Amaliy tahlil – MTTlarda innovatsion metodlar (o’yin texnologiyalari, STEAM, interfaol usullar) qo’llanganda olingan natijalar o’rganildi.

Tahlil va natejalar

Pedagog nigohida zamonaviy ta’lim: Tarbiyachi-pedagog uchun bugungi ta’lim tizimi quyidagi imkoniyatlarni ochib beradi: Har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish O’quvchi-yu tarbiyalanuvchi bilan yaqin aloqada ishlash Ijtimoiy-emotsional muhitni sog’lomlashtirish Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik va tafakkurni rivojlantirish

1. Zamonaviy ta’lim tashkilotlarining shakllanishi Zamonaviy ta’lim tashkiloti quyidagi mezonlarga javob berishi kerak: Ta’lim va tarbiyaning uyg’unligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasi Pedagoglar va psixologlar

hamkorligi Ota-onalar bilan tizimli aloqalar Masalan: Finlandiyada bolalar 7 yoshdan maktabga boradi, biroq ular 6 yoshgacha bo'lgan davrda aynan shaxsiy rivojlanishga qaratilgan ta'lim muassasalarida qatnashadi. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda "Ilk qadam" dasturi orqali yondashuvlar joriy etilmoqda.

2. Tarbiyachi pedagog roli zamonaviy ta'limda Tarbiya jarayoni – bu uzluksiz va murakkab jarayon. Bugungi tarbiyachi quyidagi fazilatlarni o'zida mujassam etishi zarur: Psixolog, do'st, maslahatgo'y Texnologiyalardan samarali foydalanuvchi Ota-onalar va jamiyat bilan muloqotga ochiq Doimiy o'z ustida ishlovchi, zamonaviy o'qituvchidir Texnologik savodxonlik Mehr-shafqat, sabr-toqat Psixologik yondashuvlar Raqamli vositalarni o'yinlar orqali uyg'unlashtira olish qobiliyati Hayotiy misol: "Ranglar o'yinida" bolalar interaktiv ekran orqali ranglarni tanlab, ularni hayotdagi narsalar bilan bog'laydi. Bu esa ularda mantiqiy fikrlashni, kuzatuvchanlikni va nutqni rivojlantiradi.

3. Yutuqlar va imkoniyatlar Innovatsion texnologiyalar: Interaktiv doskalar AR/VR (Virtual haqiqat) ertaklar Online monitoring platformalari Yangi pedagogik yondashuvlar: Zamonaviy ta'lim muassasalari quyidagi asosiy jihatlar bilan ajralib turadi: Innovatsion yondashuv: raqamli texnologiyalar, interfaol ta'lim metodlari Yangi pedagogik g'oyalar: STEAM, inkluziv ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv "Montessori", "Reggio Emilia", "STEAM" yondashuvi Muvozanatli tarbiya: ma'naviyat, qadriyat, milliy g'urur va umuminsoniy tamoyillar uyg'unligi Kompetensiyaga asoslangan metodikalar Ota-onalar bilan aloqalar: Raqamli kundaliklar Telegram guruhlar orqali doimiy axborot almashinuvi

4. Muammolar va ularning yechimlari

Muammo	Yechim
1.Raqamli texnikaning yetishmasligi	Davlat-yakka sherikchiligi asosida tadbirkor
2.Tarbiyachilarning malakasi pastligi	Doimiy kurslar tashkil etish treninglar,
3.Ota-onalarning loqaydligi	Onlayn dars videolari , tarbiyaviy seminarlar

Xulosa:

Zamonaviy ta'lim tashkilotlari — bu bolaga hayotni o'rgatadigan, uni mehr bilan quchadigan, mustaqil shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladigan makondir. Tarbiyachi pedagog sifatida har kuni bolalarda o'zgarishni ko'rish, ularning har bir yutug'idan faxrlanish — bu eng katta mukofotdir.

Shunday ekan, biz pedagoglar zamon bilan hamnafas bo'lib, o'z ustimizda ishlashda davom etishimiz zarur.

Zamonaviy ta'lim tashkilotlari — bu nafaqat bilim, balki insoniylik, ma'naviyat va kelajakka ishonch makonidir.

Bunday muassasalarda faoliyat yuritayotgan har bir pedagog oldida ulkan mas'uliyat bor: har bir bolani yuksak insoniy fazilatlar bilan tarbiyalash, unga kuch va ishonch bag'ishlash.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirishga oid" qarori, 2024 3-5 betlar
2. UNESCO. Early Childhood Education in Digital World, Paris, 2023 12-17 betlar
3. Zokirova M. "Pedagogik mahorat asoslari", Samarqand, 2022 45-50 betlar
4. www.maktabgacha.uz – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy sayti (murojaat qilingan sana 2025-yil 1- avgust)
5. Karimova D. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari", Toshkent, 2023 28-33 betlar
6. OECD Education Outlook, 2023 65-70 betlar